



YOSHLARNING DAM OLISHI MAZMUNLI O‘TSIN

Yurtimizda yoshlarning yetuk va barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus ham kelajak egalarining ta‘lim-tarbiyasida,

ularning sog'lom turmush-tarzini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etdi.



Bugun ko'plab ilm dargohlari singari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham bu boradagi salmoqli ishlarga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Kuni kecha institutning suzish havzasida suv sporti bo'yicha mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa buning yorqin isbotidir.



0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamda Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Shahriobod” va “Bahor” mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra musobaqada yoshlar suzishning 50 metrga erkin, chalgancha, batterflay, brass usullarida bahslashishdi.

Yakunda, g‘oliblarga faxriy medallar hamda homiylar tomonidan tayyorlangan esdalik sovg‘alari topshirildi.



0'ylaymizki, bunday sport musobaqalari

eng avvalo, yosh avlodni sogʻlom, baquvvat va barkamol qilib tarbiyalashda, ularning taʼtildagi boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishlarida muhim omil boʻlib xizmat qiladi.